

TALABALARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA UNI OLDINI OLISHNING KOMPLEKS PSIXOLOGIK PREVENSIYA MODELI

Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

bonukodirova6@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks prevensiya mexanizmlari asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida suitsidal moyillikning psixologik strukturasi, uning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o'zaro bog'liqlikda o'rganilgan. Shuningdek, shaxsning intrapersonal resurslari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va stress omillarining suitsidal xavf dinamikasiga ta'siri empirik jihatdan asoslanadi. Maqolada psixodiagnostik metodlar asosida suitsidal riskni erta aniqlash, differensial baholash hamda individual va guruhviy korreksion dasturlarni ishlab chiqishning metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompleks va tizimli yondashuvga asoslangan psixologik prevensiya modeli suitsidal xulq-atvor ko'rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytiradi va shaxsning adaptiv imkoniyatlarini oshiradi.

Kalit so'zlar: suitsidal xulq-atvor, suitsidal moyillik, ijtimoiy-psixologik determinantlar, psixologik prevensiya, risk omillari, emotsional disregulyatsiya, kognitiv buzilishlar, intrapersonal resurslar, psixodiagnostika, korreksion dastur, krizis intervensiya, adaptatsiya mexanizmlari.

Abstract: This article systematically analyzes the socio-psychological determinants influencing the formation of suicidal behavior among students and substantiates a comprehensive preventive mechanism aimed at mitigating these factors. Within the framework of the study, the psychological structure of suicidal tendencies and its cognitive, emotional, and behavioral components are examined in their interrelationship. Furthermore, the influence of intrapersonal resources, the level of social support, and stress factors on the dynamics of suicidal risk is empirically substantiated. The article highlights the methodological foundations of early detection of suicidal risk, differential assessment based on psychodiagnostic methods, and the development of individual and group corrective programs. The research findings indicate that a comprehensive and systematic psychological prevention model significantly reduces indicators of suicidal behavior and enhances an individual's adaptive capabilities.

Keywords: suicidal behavior, suicidal tendencies, socio-psychological determinants, psychological prevention, risk factors, emotional dysregulation, cognitive distortions, intrapersonal resources, psychodiagnostics, corrective program, crisis intervention, adaptation mechanisms.

Аннотация: В данной статье системно анализируются социально-психологические детерминанты формирования суицидального поведения у студентов и обосновываются комплексные механизмы профилактики, направленные на устранение данных факторов. В рамках исследования изучается психологическая структура суицидальных тенденций, а также её когнитивные, эмоциональные и поведенческие компоненты во взаимосвязи. Кроме того, эмпирически обосновывается влияние внутриличностных ресурсов, уровня социальной поддержки и стрессовых факторов на динамику суицидального риска. В статье рассматриваются методологические основы раннего выявления суицидального риска, дифференциальной оценки на основе психодиагностических методов, а также разработки индивидуальных и групповых коррекционных программ. Результаты исследования показывают, что комплексная и системная модель психологической профилактики значительно снижает показатели суицидального поведения и повышает адаптивные возможности личности.

Ключевые слова: суицидальное поведение, суицидальные тенденции, социально-психологические детерминанты, психологическая профилактика, факторы риска, эмоциональная дисрегуляция, когнитивные искажения, внутриличностные ресурсы, психодиагностика, коррекционная программа, кризисная интервенция, механизмы адаптации.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari hamda axborot oqimining keskin ortishi shaxs psixikasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'smirlar va talabalar muhitida emotsional zo'riqish, psixologik beqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarining kuchayishi suitsidal xulq-atvorning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, suitsidal xatti-harakatlarni nafaqat klinik, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida kompleks o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

An'anaviy yondashuvlarda suitsidal xulq-atvor asosan patologik holat sifatida talqin qililib, uning oqibatlari bilan kurashishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda prevensiya masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, suitsidal moyillikni shakllanish bosqichidayoq aniqlash, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Suitsidal xulq-atvor murakkab, ko'p komponentli psixologik hodisa bo'lib, uning yuzaga kelishi shaxsning intrapersonal xususiyatlari, emotsional holati, kognitiv jarayonlari hamda ijtimoiy muhit omillarining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Shu boisdan, mazkur hodisani o'rganishda yagona yondashuv yetarli emas, balki integrativ, tizimli va ko'p darajali ilmiy yondashuvni qo'llash talab etiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda yoshlar orasida stress omillarining ortishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda psixologik yordamga murojaat qilish madaniyatining pastligi suitsidal xavf darajasining

oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud profilaktik tizimlarning yetarlicha samarali emasligi mazkur muammoni chuqurroq ilmiy asosda o'rganishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — talabalarda suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan kompleks psixologik prevensiya modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- suitsidal xulq-atvorning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- suitsidal moyillikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- psixodiagnostik metodlar orqali xavf darajasini baholash;
- korrektsion va profilaktik dastur ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan dastur samaradorligini baholash.³⁵

Tadqiqot ob'ekti sifatida talabalar muhitidagi suitsidal xulq-atvor jarayoni tanlangan bo'lsa, predmeti — uning ijtimoiy-psixologik determinantlari va prevensiya mexanizmlaridan iborat.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda suitsidal xulq-atvorni o'rganishda kompleks yondashuv asosida psixologik, ijtimoiy va individual omillar integratsiyasi ta'minlanadi hamda amaliyotga yo'naltirilgan korrektsion-prevensiv model taklif etiladi.

Suitsidal xulq-atvor muammosi psixologiya, sotsiologiya va tibbiyot fanlari kesishmasida joylashgan murakkab va ko'p omilli hodisa sifatida keng o'rganilgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomenning kelib chiqish mexanizmlari, determinatsion omillari hamda uni oldini olishning samarali strategiyalariga oid turli yondashuvlar mavjud.

Xorijiy tadqiqotlarda suitsidal xulq-atvorni tushuntirishda bir qator nazariy konsepsiyalar ilgari surilgan. Jumladan, kognitiv yondashuv doirasida suitsidal moyillik shaxsning disfunktsional fikrlash sxemalari, negativ avtomatik fikrlar va umidsizlik holati bilan bog'liq holda izohlanadi. Ushbu yondashuv vakillari suitsidal xatti-harakatlarni kognitiv buzilishlar natijasi sifatida talqin qiladilar. Emotsional yondashuv esa depressiv holatlar, affektiv beqarorlik va ichki psixologik ziddiyatlarni asosiy determinant sifatida ko'rsatadi.³⁶

Sotsiologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa suitsidal xulq-atvor ijtimoiy integratsiya va regulyatsiya darajasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxsning jamiyatga moslashuv darajasi pasaygan sari suitsidal xavf ortadi. Ayniqsa, ijtimoiy izolyatsiya, oilaviy nizolar, kommunikativ uzilishlar hamda qo'llab-quvvatlovchi muhitning yetishmasligi asosiy xavf omillari sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suitsidal xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ayniqsa yoshlar muhitida uning namoyon bo'lish shakllari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlarda shaxsning o'z-o'zini baholash darajasi, motivatsion soha, emotsional barqarorlik hamda stressga chidamlilik darajasi suitsidal moyillik bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'quv jarayonidagi zo'riqishlar, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va ijtimoiy bosim omillari ham muhim determinant sifatida ko'rsatib o'tilgan.

³⁵ Durkheim E. Le Suicide: Étude de sociologie. Paris: Félix Alcan. – 1897. 167.

³⁶ Abramson L.Y., Metalsky G.I., Alloy L.B. Hopelessness depression: A theory-based subtype of depression. Psychological Review. – 1989. – Vol. 96(2). – P. 358–372.

Zamonaviy ilmiy manbalarda suitsidal xulq-atvorni faqat patologik hodisa sifatida emas, balki shaxsning muammoli vaziyatlarga moslashishdagi qiyinchiliklari bilan bog'liq bo'lgan kompleks psixologik reaksiya sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, prevensiya jarayonida faqat xavf omillarini kamaytirish emas, balki shaxsning ichki resurslarini rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash hamda adaptiv xulq strategiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda suitsidal xulq-atvorni oldini olishning ko'p bosqichli modeli keng qo'llaniladi. Ushbu model birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika choralari o'z ichiga oladi. Birlamchi profilaktika umumiy aholi orasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, ikkilamchi profilaktika xavf guruhlarini erta aniqlashni, uchlamchi profilaktika esa suitsidal urinish sodir etgan shaxslar bilan individual ishlashni nazarda tutadi.

TAHLIL VA NATIJA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, suitsidal xulq-atvorni samarali oldini olish uchun integrativ yondashuv zarur bo'lib, u psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarni kompleks tarzda hisobga olishni talab etadi. Shu bilan birga, psixodiagnostik metodlarning aniqligi, korreksion dasturlarning individuallashtirilganligi hamda psixologik xizmat tizimining samarali tashkil etilishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarda suitsidal xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari ko'p omilli ijtimoiy-psixologik tizim sifatida kompleks tahlil qilindi. Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, suitsidal moyillik determinatsiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan intrapersonal, interpersonal hamda sotsiogen omillar majmuasi orqali amalga oshadi.

Tahlil jarayonida suitsidal xulq-atvorning strukturaviy komponentlari sifatida kognitiv, affektiv-emotsional va kognitiv darajalar o'zaro funksional integratsiyada namoyon bo'lishi aniqlandi. Xususan, kognitiv komponent doirasida disfunktsional e'tiqodlar tizimi, global negativ atribusiya uslubi hamda kelajakni pessimistik prognozlash tendensiyasi ustunlik qilishi kuzatildi. Bunday kognitiv konstruktlar shaxsda umidsizlik sindromining shakllanishiga olib kelib, suitsidal fikrlarning intensivligini oshiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Affektiv komponent tahlili natijalariga ko'ra, yuqori suitsidal xavfga ega bo'lgan respondentlarda emotsional disregulyatsiya, affektiv labillik hamda uzoq davom etuvchi subdepressiv holatlar ustunligi qayd etildi. Emotsional sohadagi mazkur buzilishlar shaxsning stress omillariga nisbatan adekvat reaksiyalarini susaytirib, frustratsion tolerantlik darajasining pasayishiga olib keladi. Natijada, hatto nisbatan kichik psixotravmatik vaziyatlar ham sub'ektiv jihatdan yuqori intensivlikda qabul qilinib, destruktiv xulq-atvor strategiyalarining faollashuviga sabab bo'ladi.

Kognitiv komponent doirasida esa ijtimoiy faollikning pasayishi, kommunikativ izolyatsiya, ijtimoiy rollarning torayishi hamda adaptiv xulq repertuarining yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Bu holat shaxsning muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish imkoniyatlarini cheklab, suitsidal xatti-harakatlarga nisbatan predispozitsiyani kuchaytiradi.

Empirik tahlillar ijtimoiy-psixologik determinantlar tizimida interpersonal omillarning ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, oilaviy disfunktsiya, emotsional

qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, ijtimoiy aloqalarning fragmentatsiyasi hamda tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlardagi konfliktogen vaziyatlar suitsidal xavfning sezilarli oshishiga olib keluvchi faktorlar sifatida identifikatsiya qilindi. Shu bilan birga, akademik muhitdagi yuqori talablar, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv va doimiy baholanish holati talabalarda kronik stress sindromining shakllanishiga sabab bo'lib, bu esa suitsidal moyillikni kuchaytiruvchi katalizator vazifasini bajaradi.

Psixodiagnostik tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlar suitsidal risk darajasi bo'yicha differensial tarzda uch guruhga ajratildi: past, o'rta va yuqori xavf zonalar. Yuqori xavf guruhida emotsional dezadaptatsiya, kognitiv rigidlik, ijtimoiy ajralish va intrapersonal resurslarning yetishmovchiligi kompleks tarzda namoyon bo'ldi. O'rta xavf guruhida esa situativ stressga yuqori sezuvchanlik hamda o'z-o'zini baholashning noturg'unligi ustunlik qildi.

Olingan natijalar asosida suitsidal xulq-atvorning integral modeli ishlab chiqildi, unga ko'ra mazkur hodisa quyidagi determinantlar tizimi orqali izohlanadi:

- intrapersonal darajada: emotsional disregulyatsiya, past self-konseptsiya, kognitiv disfunktsiyalar;
- interpersonal darajada: ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning defitsiti, kommunikativ izolyatsiya;
- sotsiogen darajada: akademik bosim, ijtimoiy stressorlar va adaptatsion qiyinchiliklar.

Mazkur nazariy-empirik asoslar negizida kompleks psixologik korreksion-prevensiv model ishlab chiqildi. Ushbu model multimodal yondashuvga asoslanib, kognitiv-behavioral texnologiyalar, emotsional o'zini-o'zi regulyatsiya qilish strategiyalari hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan trening komponentlarini o'z ichiga oldi.

Modelni amaliyotga joriy etish natijasida qayta diagnostika ko'rsatkichlari ijobiy dinamikani namoyon etdi. Xususan, yuqori xavf guruhida suitsidal fikrlarning intensivligi va chastotasi sezilarli darajada kamaydi, emotsional barqarorlik indeksleri oshdi hamda kognitiv moslashuvchanlik darajasi yaxshilandi. Shuningdek, respondentlarda ijtimoiy faollikning ortishi, kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi va adaptiv xulq strategiyalarining shakllanishi kuzatildi.

Shunday qilib, olingan natijalar suitsidal xulq-atvorni oldini olishda kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan psixologik yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi hamda mazkur yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarda suitsidal xulq-atvor risk darajasining psixologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Past xavf darajasi (%)	O'rta xavf darajasi (%)	Yuqori xavf darajasi (%)
Emotsional barqarorlik	68	24	8
Emotsional disregulyatsiya	12	46	42
O'z-o'zini baholash (past daraja)	15	39	46
Negativ kognitiv sxemalar	10	41	49
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	18	44	38

Ko'rsatkichlar	Past xavf darajasi (%)	O'rta xavf darajasi (%)	Yuqori xavf darajasi (%)
yetishmasligi			
Stress va psixologik zo'riqish	22	48	30
Ijtimoiy izolyatsiya	14	37	49
Suitsidal fikrlar chastotasi	5	33	62

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori suitsidal xavf guruhiga mansub respondentlarda emotsional disregulyatsiya (42%), negativ kognitiv sxemalar (49%) hamda ijtimoiy izolyatsiya (49%) yuqori ulushni tashkil etadi. Shu bilan birga, suitsidal fikrlarning chastotasi aynan ushbu guruhda keskin yuqori (62%) ekanligi aniqlangan.

O'rta xavf guruhida esa stress va psixologik zo'riqish (48%) hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi (44%) asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ushbu guruhda suitsidal moyillik hali barqaror shakllanmagan, biroq tashqi omillar ta'sirida kuchayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Past xavf guruhida emotsional barqarorlikning yuqori darajasi (68%) hamda suitsidal fikrlarning minimal ko'rsatkichlari (5%) shaxsning adaptiv resurslari yetarli darajada shakllanganligini anglatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, talabalarda suitsidal xulq-atvor murakkab, ko'p darajali va polideterminant ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishi intrapersonal (kognitiv buzilishlar, emotsional disregulyatsiya, past o'z-o'zini baholash), interpersonal (oilaviy va tengdoshlar bilan munosabatlardagi disfunktsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash defitsiti) hamda sotsiogen (akademik stress, ijtimoiy bosim, adaptatsion qiyinchiliklar) omillar o'zaro integratsiyasi asosida yuzaga keladi.

Empirik tahlillar suitsidal xulq-atvorning strukturaviy komponentlari o'zaro funksional bog'liqlikda namoyon bo'lishini tasdiqladi. Xususan, kognitiv sohadagi negativ avtomatik fikrlar va umidsizlik darajasi affektiv beqarorlikni kuchaytirib, o'z navbatida, xulq-atvor darajasida ijtimoiy izolyatsiya va adaptiv strategiyalarning susayishiga olib kelishi aniqlandi. Bu esa suitsidal xavfning dinamik ravishda ortib boruvchi psixologik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida suitsidal moyillik darajasi differensial tarzda baholandi va yuqori xavf guruhida kompleks psixologik disfunktsiyalar majmuasi ustunlik qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. O'rta xavf guruhida esa stressga sezuvchanlik va emotsional beqarorlik yetakchi rol o'ynashi, past xavf guruhida esa adaptiv resurslar va emotsional barqarorlikning yuqori darajasi kuzatilishi qayd etildi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan korreksion-prevensiv modelning samaradorligi empirik jihatdan tasdiqlandi. Mazkur model kognitiv-behavioral, emotsional-regulyativ va ijtimoiy-kommunikativ komponentlarni o'z ichiga olgan holda, shaxsning ichki resurslarini faollashtirish va adaptiv xulq strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Qayta diagnostika natijalari suitsidal fikrlar intensivligining kamayishi,

emotsional barqarorlikning oshishi hamda ijtimoiy moslashuv darajasining yaxshilanishini ko'rsatdi.

Umuman olganda, olingan natijalar suitsidal xulq-atvorni oldini olishda kompleks, tizimli va integrativ psixologik yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bois, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimini takomillashtirish, erta diagnostika mexanizmlarini kuchaytirish hamda individual va guruhiiy korreksion dasturlarni muntazam joriy etish zaruriy ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abramson L.Y., Metalsky G.I., Alloy L.B. Hopelessness depression: A theory-based subtype of depression. *Psychological Review*. – 1989. – Vol. 96(2). – P. 358–372.
2. Beck A.T., Steer R.A., Brown G.K. Manual for the Beck Depression Inventory-II. San Antonio: Psychological Corporation. – 1996.
3. Durkheim E. Le Suicide: Étude de sociologie. Paris: Félix Alcan. – 1897.
4. Hawton K., van Heeringen K. Suicide. *The Lancet*. – 2009. – Vol. 373. – P. 1372–1381.
5. Joiner T.E. Why People Die by Suicide. Cambridge, MA: Harvard University Press. – 2005. 167-b.
6. Sattarov E.N. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-psixologik xavf guruhlari bilan ishlash tizimi. – Toshkent. – 2022.
7. World Health Organization (WHO). Preventing Suicide: A Global Imperative. Geneva: WHO. – 2014.
8. Гозиев Э.Г. Психология “Хавfli xulq-atvor va shaxs rivojlanishi”. – Toshkent: Universitet. – 2015. 215-220-b.